https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble

Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Hojiboyeva E'zoza Sherali qizi

Navoiy Davlat Universiteti

Elektron manzil: ezozahojiboyeva41@gmail.com

ABDULLA QODIRIYNING "O'TKAN KUNLAR" ROMANIDAGI STILISTIK VOSITALARNING DISKURSIV-SEMANTIK TADQIQI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyoti romanchiligining shakllanishida muhim poydevor bo'lib xizmat qilgan Abdulla Qodiriyning mashhur O'tkan kunlar romanida qo'llanilgan stilistik vositalar lingvopoetik jihatdan tahlil qilinadi. Asarda uchraydigan tashbeh, metafora, metonimiya kabi badiiy ifoda vositalarining semantik, struktur va obraz yaratishdagi funksional xususiyatlari aniqlanadi hamda ularning ingliz tilidagi muqobil shakllari bilan qiyosiy tahlili amalga oshiriladi. Tadqiqot davomida yozuvchi individual uslubining o'ziga xos jihatlari ochib berilib, badiiy matn orqali o'quvchi ongida shakllanadigan estetik va obrazli tafakkur mexanizmlari yoritiladi.

Kalit so'zlar: : stilistik vosita, tashbeh, metonimiya,metafora, sinekdoxa, badiiy tasvir, obrazlilik, muqobil, badiiy

A DISCOURSIVE SEMANTIC ANALYSIS OF STYLISTIC DEVICES IN ABDULLA QODIRIY'S NOVEL 'O'TKAN KUNLAR'

Khojiboeva Ezoza Sherali kizi

Navoi State University

E-mail address: ezozahojiboyeva41@gmail.com

Abstract

This article provides a linguopoetic analysis of stylistic devices employed in the famous novel O'tkan kunlar by Abdulla Kodiriy, which played a crucial role in laying the foundation for the development of Uzbek novelistic tradition. The study

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

identifies the semantic, structural, and functional characteristics of such expressive means as simile, metaphor, metonymy examining their role in meaning construction and image formation, and conducts a comparative analysis with their equivalents in English. In the course of the research, the distinctive features of the author's individual style are revealed, and the mechanisms through which aesthetic perception and figurative thinking are formed in the reader's consciousness by means of the literary text are elucidated.

Keywords: stylistic device, simile, metonymy, metaphor, synecdoche, artistic imagery, figurativeness, equivalent, literary

ДИСКУРСИВНО-СЕМАНТИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ СТИЛИСТИЧЕСКИХ СРЕДСТВ В РОМАНЕ АБДУЛЛЫ КАДЫРИ «МИНУВШЫЕ ДНИ»

Хожибоева Эзоза Шерали кизи
Наваинский государственный Университет
Электронная почта: ezozahojiboyeva41@gmail.com

Аннотация

В статье проводится лингвопоэтический анализ стилистических средств,использованных в знаменитом романе «Минувшие дни» Абдулла Кадыри, сыгравшем ключевую роль в формировании узбекской романной традиции. В ходе исследования выявляются семантические, структурные и функциональные характеристики таких средств художественной выразительности, как сравнение, метафора, метонимия рассматривается их роль в процессе смыслообразования и создания художественных образов, а также осуществляется сопоставительный анализ с их эквивалентами в английском языке. В результате исследования раскрываются особенности индивидуального авторского стиля писателя и освещаются механизмы формирования эстетического восприятия и образного мышления в сознании читателя посредством художественного текста.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Ключевые слова: стилистическое средство, сравнение, метонимия, метафора, синекдоха, художественная образность, образность, эквивалент, художественный

KIRISH

Adabiy tilning estetik qiymati, eng avvalo, unda qo‘llaniladigan badiiy va stilistik vositalarning mazmuniy va funksional imkoniyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy matnda til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki estetik ta’sir ko‘rsatish, obraz yaratish hamda muallifning individual dunyoqarashini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois har bir yozuvchi o‘z fikrini o‘quvchiga yetkazishda grammatik me’yorlarga rioya qilish bilan cheklanib qolmay, balki nutqning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiruvchi stilistik imkoniyatlardan keng foydalanadi.

Stilistik vositalar matn mazmunining chuqurroq ochilishiga, fikrning obrazli va emotsional ifodalanishiga, shuningdek, muallif pozitsiyasining o‘quvchi ongida aniq va ta’sirli shakllanishiga xizmat qiladi. Tashbeh, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi badiiy ifoda vositalari nafaqat estetik funksiyani bajaradi, balki diskursiv jarayonda ma’no hosil qilish, obrazlar tizimini shakllantirish va badiiy konseptlarni yoritishda muhim semantik yukni o‘z zimmasiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, stilistik vositalarning lingvopoetik, diskursiv va semantik jihatdan tahlil qilinishi til birliklarining badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini aniqlashga, yozuvchi individual uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga imkon yaratadi. Bunday tahlil nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik doirasida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etib, badiiy matnning estetik va mazmuniy qatlamlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. **[1;37]**

Ключевые слова: стилистическое средство, сравнение, метонимия, метафора, синекдоха, художественная образность, образность, эквивалент, художественный

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

KIRISH

Adabiy tilning estetik qiymati, eng avvalo, unda qo‘llaniladigan badiiy va stilistik vositalarning mazmuniy va funksional imkoniyatlari orqali namoyon bo‘ladi. Badiiy matnda til nafaqat axborot uzatish vositasi, balki estetik ta’sir ko‘rsatish, obraz yaratish hamda muallifning individual dunyoqarashini ifodalash vositasi sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois har bir yozuvchi o‘z fikrini o‘quvchiga yetkazishda grammatik me’yorlarga rioya qilish bilan cheklanib qolmay, balki nutqning badiiy ta’sirchanligini kuchaytiruvchi stilistik imkoniyatlardan keng foydalanadi.

Stilistik vositalar matn mazmunining chuqurroq ochilishiga, fikrning obrazli va emotsional ifodalanishiga, shuningdek, muallif pozitsiyasining o‘quvchi ongida aniq va ta’sirli shakllanishiga xizmat qiladi. Tashbeh, metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi badiiy ifoda vositalari nafaqat estetik funksiyani bajaradi, balki diskursiv jarayonda ma’no hosil qilish, obrazlar tizimini shakllantirish va badiiy konseptlarni yoritishda muhim semantik yukni o‘z zimmasiga oladi. Shu nuqtayi nazardan, stilistik vositalarning lingvopoetik, diskursiv va semantik jihatdan tahlil qilinishi til birliklarining badiiy matndagi funksional imkoniyatlarini aniqlashga, yozuvchi individual uslubining o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga imkon yaratadi. Bunday tahlil nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik doirasida ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etib, badiiy matnning estetik va mazmuniy qatlamlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. **[1;37]** hosil qilish, obraz yaratish hamda diskursiv funksiyalari aniqlandi. Shuningdek, ushbu vositalarning ingliz tilidagi tarjima variantlari bilan muqobillik darajasi qiyosiy jihatdan o‘rganildi.

“Har holda namozshom gul kabi yopiq edi.” **[3;27-bet]**

Mazkur misolda bosh qahramon Kumushning ruhiy holati **“gul kabi yopiq”** tashbehi orqali ifodalanadi. Tashbeh obrazning ichki xomushligi, ruhiy bosimi va tashqi muhitdan uzilgan holatini semantik jihatdan kuchaytiradi. “Namozshom gul” obrazi orqali nafaqat yopiq holat, balki yaqinlashib kelayotgan noxushliklar, ichki

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

xavotir va taqdiriy tashvishlar ham bilvosita anglashiladi. Ushbu tashbeh yozuvchining tabiat hodisalari bilan inson ruhiy kechinmalarini uyg‘unlashtirishdagi badiiy mahoratini ko‘rsatadi.

Ingliz tilidagi tarjimada ushbu o‘xshatish quyidagicha berilgan:

“She sat silently, as if her eyes were closed like a nighttime flower.” **[4;32]**

Mazkur tarjimada tashbeh saqlangan bo‘lsa-da, tasvir markazi siljigan: o‘zbekcha matnda umumiy holat ifodalangan bo‘lsa, inglizcha variantda diqqat qahramonning ko‘zlariga qaratilgan. Bu holat semantik jihatdan to‘liq muqobillikni ta’minlamaydi va obrazning umumiy ruhiy fonini biroz toraytiradi.

“Azizbekning zulmlari Farg‘onaga doston bo‘lgan.” **[3;12]**

Ushbu jumlada metonimiya vositasi orqali Azizbekning shafqatsizligi butun hudud miqyosida mashhur bo‘lgani ifodalanadi. “Farg‘onaga” leksemasi orqali ma’lum bir shahar yoki hudud emas, balki butun aholi va ijtimoiy muhit nazarda tutiladi. “Doston bo‘lgan” birikmasi esa ko‘chma ma’noda qo‘llanilib, voqealarning og‘zaki xotira va xalq ongida mustahkam o‘rnashganini bildiradi. Shu orqali yozuvchi hodisalarning ijtimoiy rezonansini kengaytiradi.

Inglizcha tarjimada:

“His cruelty to the people of Tashkent was legendary in Fergana for a long time.” **[4;46]**

Bu holatda ham metonimik munosabat saqlanib qolgan bo‘lib, **“Fergana”** toponimi orqali muayyan geografik makon emas, balki ushbu hududda istiqomat qiluvchi ijtimoiy guruh, ya’ni aholi umumlashtirilgan holda anglashiladi. Tarjima jarayonida toponimning referensial funksiyasi semantik jihatdan qayta kodlanib, metonimiyaning konseptual asosi — *makon* → *inson* munosabati izchil tarzda saqlab qolingan. Natijada, metonimik birlikning asosiy semantik va pragmatik yuki buzilmagan, balki ingliz tilidagi diskurs doirasida funksional muqobillik asosida qayta tiklangan.

“Saroy tinch uyquda, tun yarim.” **[3;18]**

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Mazkur jumlada **“saroy uyquda”** ifodasi orqali binoning o‘zi emas, balki saroy ahli nazarda tutiladi. Metonimiya vositasi muallifga voqea manzarasini umumlashtirilgan, sokin va keng ko‘lamli tarzda tasvirlash imkonini beradi. **“Aholisi”** so‘zining tushirib qoldirilishi badiiy ixchamlikni ta’minlab, sahna sokinligini yanada kuchaytiradi.

“Caravanserai fell into a deep peaceful sleep. It was midnight.” **[4;32]**

Mazkur tarjima variantida metonimiya vositasi semantik va diskursiv jihatdan saqlanib qolgan. **“Caravanserai”** leksemasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri inshootni emas, balki ushbu makonda istiqomat qilayotgan insonlar faoliyatining to‘xtashi va umumiy sokinlik holatini anglatadi. Bu yerda *makon → inson* metonimik modeli asosida harakatning subyekti bilvosita ifodalangan bo‘lib, badiiy matn uchun xos bo‘lgan umumlashtirish va sahna kengligini ta’minlaydi.

Shuningdek, **“fell into a deep peaceful sleep”** birikmasi personifikatsiya unsurlarini ham o‘z ichiga olgan bo‘lib, jonsiz obyektga insoniy holat yuklanadi. Bu esa tungi sokinlik, vaqtning kechligi va voqea fonining mutlaq tinchligini kuchaytirishga xizmat qiladi. Ikkinchi gap — **“It was midnight”** — diskursiv jihatdan vaqt ko‘rsatkichini aniqlashtirib, birinchi jumlada yaratilgan manzaraning semantik fonini mustahkamlaydi. Tarjima jarayonida metonimik ifodaning asosiy semantik yuki saqlangan, obrazlilik darajasi pasaymagan va muallif yaratgan badiiy manzara ingliz tilida ham funksional muqobillik asosida qayta tiklangan. Shu bois mazkur tarjima variantini metonimik va stilistik jihatdan muvaffaqiyatli deb baholash mumkin.

NATIJA VA MUHOKAMA

O‘tkazilgan lingvopoetik va diskursiv-semantik tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida tashbeh va metonimiya stilistik vositalari muallifning badiiy diskursini shakllantiruvchi asosiy ifoda mexanizmlaridan biri sifatida faol qo‘llangan. Ushbu vositalar orqali

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

qahramonlarning ruhiy holati, ijtimoiy muhit va voqealar fonining estetik talqini ta’minlangan.

Tashbeh vositasiga oid tahlillar Kumush obrazining ruhiy kechinmalarini ochishda tabiat obrazlari muhim semantik tayanch vazifasini bajarayotganini ko‘rsatadi. **“Namozshom gul kabi yopiq”** o‘xshatishi qahramonning ichki xomushligi, emotsional bosimi va ruhiy izolyatsiyasini bilvosita ifodalaydi. Ushbu tashbeh diskursiv jihatdan vaqt, makon va holat birliklarini birlashtirib, obrazning ichki dunyosini estetik jihatdan chuqurlashtiradi. Ingliz tiliga tarjima jarayonida tashbeh saqlangan bo‘lsa-da, tasvir markazining qisman siljishi natijasida obrazning umumiy ruhiy fonida torayish yuzaga kelgan. Bu hol tashbeh tarjimasida semantik yadroni saqlash bilan birga, obrazli yaxlitlikni to‘liq tiklash har doim ham imkoni bo‘lmasligini ko‘rsatadi. Metonimiya vositasi esa romanda ijtimoiy makon va inson faoliyatini umumlashtirishga xizmat qiluvchi muhim diskursiv mexanizm sifatida namoyon bo‘ladi. **“Azizbekning zulmlari Farg‘onaga doston bo‘lgan”** jumlasida toponim orqali hudud aholisi va ularning kollektiv xotirasi anglashilib, voqealarning ijtimoiy rezonansi kengaytiriladi. Bu yerda metonimiyaning makon → inson modeli asosida shakllangan konseptual munosabat badiiy matnda umumlashtirish va baholash funksiyasini bajaradi. Inglizcha tarjimada ushbu munosabatning saqlanib qolishi metonimiyaning semantik va pragmatik yukini boshqa til diskursida ham tiklash mumkinligini ko‘rsatadi.

“Saroy tinch uyquda” misolida esa metonimiya sahna sokinligi va vaqtning kechligi bilan bog‘liq umumiy fonni yaratishga xizmat qiladi. Jonsiz obyekt nomi orqali inson faoliyatining to‘xtashi anglashilib, voqea manzarasi keng va sokin tarzda tasvirlanadi. Inglizcha tarjimada ushbu metonimik ifoda personifikatsiya unsurlari bilan boyitilgan bo‘lsa-da, metonimiyaning asosiy semantik yadrosi saqlanib qolgan. Bu hol tarjimada funksional muqobillik tamoyiliga amal qilinganini ko‘rsatadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, tashbeh va metonimiya Abdulla Qodiriy badiiy diskursining markaziy stilistik vositalari bo‘lib,

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ular orqali muallif qahramonlarning ichki holatini, ijtimoiy muhitni va voqealar dinamikasini obrazli hamda emotsional jihatdan ta’sirchan tarzda ifodalaydi. Ingliz tiliga tarjima jarayonida ushbu vositalarning semantik asoslari asosan saqlanib qolgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda diskursiv siljishlar yuzaga kelgan. Bu esa badiiy tarjimada stilistik muqobillik masalasining dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi.

XULOSA

Mazkur maqolada Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida tashbeh va metonimiya stilistik vositalarining diskursiv-semantik xususiyatlarini aniqlashga qaratildi. O‘tkazilgan tahlillar ushbu vositalar muallif badiiy diskursining markaziy ifoda mexanizmlari sifatida faol qo‘llanilganini va roman estetik tuzilmasining shakllanishida muhim rol o‘ynaganini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, tashbehlar asarda qahramonlarning ichki ruhiy holatini obrazli va emotsional jihatdan ifodalashga xizmat qiluvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Metonimiya esa ijtimoiy makon, inson faoliyati va voqealar fonini umumlashtirish orqali badiiy diskursning semantik ko‘lamini kengaytiradi. Ushbu stilistik vositalar orqali muallif individual uslubining o‘ziga xos jihatlari, shuningdek, badiiy matnda ma’no hosil qilish mexanizmlari yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ingliz tiliga tarjima jarayonini qiyosiy o‘rganish natijasida metonimiya tashbehga nisbatan yuqori darajada funksional muqobillikka ega ekani aniqlandi. Tashbehlar esa milliy-madaniy va obrazli xususiyatlari sababli tarjimada ayrim semantik va diskursiv o‘zgarishlarga uchrashi mumkin. Bu hol badiiy tarjimada stilistik vositalarni qayta yaratish muammosining dolzarbligini tasdiqlaydi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari badiiy matnni diskursiv-semantik yondashuv asosida o‘rganish stilistik vositalarning funksional imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qilishini ko‘rsatadi. Mazkur ish natijalari o‘zbek adabiyotshunosligi, lingvopoetika va badiiy tarjima nazariyasini rivojlantirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo‘lishi mumkin.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdullayeva, M. Adabiy til va stilistika. – Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2021.

2. Jo'rayev, A. Til va uslub masalalari. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2017.

BADIIY ADABIYOTLAR

3. Qodiriy, A. O'tkan kunlar. – Toshkent: "Yangi nashr" nashriyot", 2019.

4. Toxtasinov I. va boshqalar tarjimasi The days gone by. Toshkent:"Mashhur Press",2017